


## 2022- yilning yanvar-iyunida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 32 149,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 6,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 8,3 % ga yetdi.



**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

|  | <i>Mird. so'm</i> |                  | <i>O'sish<br/>sur'atlari,<br/>o'tgan yilning<br/>mos davriga<br/>nisbatan % da</i> |
|--|-------------------|------------------|--|
|  | <i>2021- yil</i>  | <i>2022- yil</i> |  |
| <b>I. YAHM, jami</b>                                   | <b>27 216,0</b>   | <b>32 149,8</b>  | <b>106,4</b>   |
| <i>shu jumladan:</i>                                   |                   |                  |  |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati              | 26 708,9          | 31 457,7         | 106,3  |
| mahsulotlarga sof soliqlar                             | 507,1             | 692,1            | 107,6  |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b>  | <b>26 708,9</b>   | <b>31 457,7</b>  | <b>106,3</b>   |
| qishloq, o'rmon<br>va baliqchilik xo'jaligi            | 3 288,8           | 3 472,6          | 103,6  |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo'shgan holda)</b>          | <b>20 144,1</b>   | <b>23 908,9</b>  | <b>106,6</b>   |
| sanoat   | 19 157,1          | 22 753,3         | 106,5  |
| qurilish   | 987,0             | 1 155,6          | 108,1  |
| <b>xizmatlar</b>                                       | <b>3 276,0</b>    | <b>4 076,2</b>   | <b>107,8</b>   |
| savdo, yashash va<br>ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar | 722,0             | 941,0            | 114,9  |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa                | 452,8             | 535,0            | 112,2  |
| boshqa xizmat tarmoqlari                               | 2 101,2           | 2 600,2          | 104,4  |

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 30 943,0 ming so‘nni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 % ga yuqoridir.

### 2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur’atlari

2021- yil

2022- yil

Aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM,  
ming so‘m

26 737,4

30 943,0

Aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM,  
o‘sish sur’ati

104,2 %

104,2 %

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 97,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 11,0 % ni, sanoat tarmog‘i 72,3 % ni, qurilish 3,7 % ni va xizmatlar sohasi 13,0 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

|   | <b>2021- yil</b> | <b>2022- yil</b> |
|---|------------------|------------------|
| <b>I. YAHM, jami</b>                                  | <b>100,0</b>     | <b>100,0</b>     |
| <i>shu jumladan:</i>                                  |                  |                  |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati             | 98,1             | 97,8             |
| mahsulotlarga sof soliqlar                            | 1,9              | 2,2              |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b>     | <b>100,0</b>     |
| <b>qishloq, o'rmon<br/>va baliqchilik xo'jaligi</b>   | <b>12,3</b>      | <b>11,0</b>      |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo'shgan holda)</b>         | <b>75,4</b>      | <b>76,0</b>      |
| sanoat  | 71,7             | 72,3             |
| qurilish  | 3,7              | 3,7              |
| <b>xizmatlar</b>                                      | <b>12,3</b>      | <b>13,0</b>      |
| savdo, yashash va ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar   | 2,7              | 3,0              |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa               | 1,7              | 1,7              |
| boshqa xizmat tarmoqlari                              | 7,9              | 8,3              |

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**





Yalpi qo'shilgan qiymat

Mahsulotlarga sof soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 11,0 %), sanoatda – 106,5 % (72,3 %), qurilishda – 108,1 % (3,7 %), xizmatlar sohasida – 107,8 % ni (13,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,9 % (3,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,2 % (1,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,4 % (8,3 %) dan iborat bo'ldi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,6 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 4,0 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 0,9 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 1,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.) ga ko'paydi.

### 2022- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'satkichlari xizmatlarda – 115,4 % va sanoatda – 111,5 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)**

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 23,5 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 24,3 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

**2021- yil      24,3 %**

**2022- yil      23,5 %**